Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi



# Yoshua ma’suliyatni bo’yniga oladi

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes
...tomonidan illustrasiya qilingan:
Janie Forest
Alastair P.
...tomonidan o’zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen
...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

BFC
PO Box 3
Winnipeg, MB R3C 2G1
Canada

©2020 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko’chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.



Muso vafot etgandi. Endi Xudo Isroilni etakchisi qilib Yoshuani tanladi. Agar Isroilliklar Xudoga itoat etishsa, Xudo albatta YOshua va ularga g’alaba berishini va’da berdi.



Isroilliklar doim Yoshuaga ergashib, Xudoga itoat etishga va'da berishdi.



Yoshua Ierixon shahrini o'rganib kelish uchun ikkita ayg'oqchini jo'natdi. Isroilliklarni birinchi jangi o'sha erda bo'lishi kerak edi.

3



Kimdir Ierixon shohiga shaharda ayg'oqchilar yurganligini aytdi. Shunda shoh ularni topib kelishni buyurdi. Ayg'ochilar Rohilani uyida yashiringan edi. Shoh lashkarlari ularni aynan o'sha erdan izlashni boshlashdi. Ular kelganda, Rohila ayg'oqchilarni zig'ir o'tlari ichiga yashirdi.

4

Shoh lashkari ketganda, Rohila ayg'oqchilarni shahar devoridan tushurib, qochishga yordam berdi. Lekin nima uchun Rohila ularga yordam berdi? Chunki Xudo ular bilan ekanligini Rohila bilardi. Ayg'oqchilar uni va oilasini asrab qolishga va'da berishdi.



5

Ierixonga kirishdan oldin Isroilliklar Iordan daryosini kesib o'tishi kerak edi. Ammo u erda ko'prik yoq edi. Odamlar qanday qilib daryodan o'tishadi?



6

Xudo Yoshuaga oliyruhoniylar lashkar va O'nta Amr yozilib, ichiga solingan Ahd Sandig'ini etaklab borishi kerakligini aytdi. Oliyruhoniylar daryo bo'yiga kelganda, Xudo mo'jiza qildi. U daryoni o'rtasidan er ochdi.



7

Ularning barchasi daryodan o'tib bo'lgach, qirg'oqqa va Kan'on qirg'og'i bo'yiga 12tadan tosh qo'yishdi. Bu Xudoning ularga ko'rsatgan marhamatini unutmaslik uchun qilindi.



8



Ierixon devorlari juda qalin va mustahkam edi. Yoshua jangga hozirlanib turganda, Xudo osmondan O’z qo’shinini Qo’mondonini erga yubordi. U Yoshuaga bu jang unga g’alaba olib kelishini aytdi.

9



Xudo Yoshuaga Ierixon devori atrofida olti kun davomida har kuni bir martadan, ettinchi kuni esa etti marta aylanishi kerakligini aytdi. Keyin karnay chalib, baqirishlari kerakligini ham aytdi. Shundan so’ng devor qulashi kerak edi.

10

Yoshua va uning qo’shini Xudo amr etgandek qilishdi. Ierixonliklar ularning ustidan kulishdi. Ammo ettinchi kuni karnayni chalishgandan keyin Ierixon devori quladi!








11



Faqatgina Rohilaning uyi omon qoldi. U derazasidan qizil arqonni chiqarib, ilib qo’ygan edi. Yoshuaning odamlari uni va oilasini qutqarib olishdi. So’ng Xudo va’da qilgandek Ierixon barbod qilindi.

12



Shahardan qolgan barcha oltin, kumush va boshqa boyliklarni Yoshua tantanali ravishda Xudoga nazr qildi. So’ng: “Shaharni qaytadan tiklanmasin, bu Xudoga qarshi,” -dedi. Tez orada atrofdagi barcha Yoshua haqida eshitishdi va Xudo O’z xalqi bilan birga ekanligini bilishdi.

13

Yoshua ma’suliyatni bo’yniga oladi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

…dan topilgan

Yoshua 1-6

“Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar.”
Zabur 119:130

14




13

60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16